

E'lon: "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari yoshlari diqqatiga!

// 16.12.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/e-lon-o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalari-yoshlari-diqqatig>



Ekologik toza energiya, energiya samaradorligi va raqamli innovatsiyalar bo'yicha loyihalarga qiziqasizmi?

Unda bu siz uchun zo'r imkoniyat!

ECO mintaqasi uchun Toza energiya markazi (CECECO) tomonidan CECECO Clean Energy Hackathon 2026 xalqaro xakatonini bo'lib o'tadi. Xakaton yoshlarning toza energiya, energiya samaradorligi va raqamli innovatsiyalar sohasidagi g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ariza uchun talab etiladigan ma'lumotlar:

- To'liq ism-sharif
- Elektron pochta manzili va telefon raqami
- Fuqaroligi yoki yashash mamlakati
- 16-35 yosh oralig'ida ekanligini hamda CECECOga a'zo davlat fuqarosi yoki rezidenti ekanligini tasdiqlovchi milliy shaxsni tasdiqlovchi hujjat, pasport yoki yashash guvohnomasining skan nusxasi
- Qisqacha tarjimai hol (150 so'zgacha)

Mukofotlar quyidagicha:

- 1-o'rin — 3 000 AQSh dollari
- 2-o'rin — 1 500 AQSh dollari
- 3-o'rin — 500 AQSh dollari

Taqdirlash marosimi 2026-yil 26-yanvar kuni Ozarbayjon Respublikasining Boku shahrida bo'lib o'tadi.

- Yo'l va yashash xarajatlari tashkilotchilar tomonidan to'liq qoplab beriladi.
- Barcha ishtirokchilarga xalqaro sertifikatlar topshiriladi.

Arizalarni topshirish tartibi:

- Muddat: 2025-yil 30-dekabrgacha
- Elektron pochta: secretariat@cec-eco.net
- Telegram: @davron_uks

Batafsil ma'lumot uchun:

<https://drive.google.com/file/d/1MkUjAC0zg5LQMszeV6kEt4GOblUY4OWw/view>

Yoshlarimizni ushbu xalqaro xakatonda faol ishtirok etishga, innovatsion g'oyalari bilan ekologik toza energetika sohasi rivojiga o'z hissalarini qo'shishga chaqiramiz.